

**SURXONDARYO VILOYATIDAGI SANGARDAK DAM OLISH  
MASKANIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN WEB-SAYTNING  
O'RNI VA SAYT YARATISH MA'LUMOTLARI**

**Choriyev Shoxrux O'tkir o'g'li**

Andijon mashinasozlik instituti

Intellectual boshqaruv va kompyuter tizimlari fakulteti 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Sangardak dam olish maskani haqida tushuncha, vohaning tabiati va bu go'shada turizmni rivojlantirishning imkoniyatlari uning web saytlarida nimalar mujassamlashishi va web-sayt yaratish uchun kerak bo'ladigan dasturlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'z:** Maskan, Spa va wellness, Frontend, HTML, CSS, JavaScript, Backend, PHP, Python, Baza, MySQL, PostgreSQL, NoSQL.

**РАЗМЕЩЕНИЕ И СОЗДАНИЕ САЙТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ  
ТУРИЗМА В САНГАРДАКЕ ОТДЫХ В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ  
ОБЛАСТИ**

**Чориев Шохрух Откир угли**

Андижанский машиностроительный институт

Студентка 4 курса факультета интеллектуального управления и компьютерных систем

**Аннотация:** в данной статье рассматривается концепция курорта Сангардак, природа оазиса и возможности развития туризма в этом уголке, что должно быть воплощено в его сайтах и программах, необходимых для создания сайта.

**Ключевые слова:** Маскан, Спа и велнес, Фронтенд, HTML, CSS, JavaScript, Бэкэнд, PHP, Python, База данных, MySQL, PostgreSQL, NoSQL.

**WEBSITE LOCATION AND SITE CREATION INFORMATION  
FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN SANGARDAK  
RECREATION IN SURKHONDARYO REGION**

**Choriyev Shokhrukh Otkir ugli**

Andijan Institute of Mechanical Engineering

4th year student of the Faculty of Intelligent Management and Computer Systems

**Abstract:** *this article discusses the concept of the Sangardak resort, the nature of the oasis and the possibilities of tourism development in this corner, what should be embodied in its websites and the programs needed to create a website.*

**Keywords:** *Maskan, Spa and wellness, Frontend, HTML, CSS, JavaScript, Backend, PHP, Python, Database, MySQL, PostgreSQL, NoSQL.*

O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida joylashgan tabiiy go'zalligi bilan ajralib turadigan, sayohatchilar uchun mo'ljallangan zamonaviy Sangardak dam olish markazidir. Ushbu maskan, tashrif buyuruvchilarga qulay sharoitlar yaratib, tabiiy va madaniy boyliklar bilan tanishish imkoniyatini taqdim etadi. Sangardak dam olish maskani, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida, go'zal tabiat qo'ynida joylashgan. Maskan, har qanday sayohatchining dam olish uchun kerakli barcha sharoitlarni taklif etadi. Tabiiy manzaralar, qulay yashash joylari va xizmatlar sizni kundalik tashvishlardan uzoqlashtirib, dam olish imkoniyatini taqdim etadi. Bu yerda sayohatchilarni toza havo, suzish havzalari, turistik turlar va ko'plab boshqa faoliyatlar kutmoqda. Sangardakning tabiati o'zining betakror

go'zalligi bilan mashhur bo'lib, tog'lar, daryolar va yashil o'rmonlar bilan o'ralgan. Ushbu maskan, nafaqat dam olishni xohlayotganlar, balki tabiatni sevuvchi va tarixiy joylarga sayohat qilishni istaganlar uchun ham ajoyib joydir.

Sangardak dam olish maskanida turli xil xizmatlar mavjud, ular orasida:

**Yotoqxona va mehmonxona xizmatlari:** Quvnoq va qulay yashash joylari, turli darajadagi xonalar.

**Restoranlar va kafelar:** Mahalliy taomlar va xalqaro oshxonadan taomlar.

**Sport va dam olish inshootlari:** Suv havzalari, sport maydonchalari, velosiped ijarasi.

**Turistik turlar:** Yaqin atrofdagi tarixiy va tabiiy ob'ektlarga ekskursiyalar.

**Spa va wellness:** Dam olish va stressni yengish uchun spa xizmatlari.

Web-sayt yaratish uchun asosan uning dizayn holatiga katta e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Chunki dam olish maskaniga sayohat qiluvchilar uning go'zalligi va betakror tabiatini o'sha web sayt yordamida ko'rib olishi va u kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun web saytga maskan joylashgan o'рни, uning kunlik ob-havo ma'lumotlari, yo'llaridagi tirbandliklar, yo'l qurilishlari haqida ma'lumotlar va dam oluvchi uchun kerak bo'ladigan kerakli moslama va anjomlar, maskan yaqinida joylashgan oziq-ovqat savdo markazi, eng muhimi yaqin atrofdagi ta'rixiy obidalar va boshqa ma'lumotlatni kiritish zarur.

**Saytning strukturasini rejalashtirish:** Veb-sayt quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi kerak, Sangardak dam olish maskanining qisqacha tavsifi, so'nggi yangiliklar va aksiyalar, dam olish maskanida taklif etilayotgan barcha xizmatlar (yotoqxona, restoranlar, sport va dam olish, ekskursiyalar va boshqalar), turli turistik paketlar, narxlar va maxsus takliflar, fotosuratlar va videolar (dam olish

maskanining manzaralari, turistik joylar), Sayt foydalanuvchilari uchun aloqa ma'lumotlari, rezervatsiya qilish uchun formulalar va onlayn yordam, turizm va dam olish haqida maqolalar, yangiliklar va maslahatlar.

Web-sayt yaratish uchun quyidagi texnologiyalarni ishlatish mumkin. Frontend tomondan HTML, CSS, JavaScript (bootstrap yoki boshqa kutubxonalar bilan), Backend tomonidan PHP, Python (Django yoki Flask), Node.js (agar dinamik kontent va ma'lumotlar bazasiga bog'lanish kerak bo'lsa), Baza tomonidan MySQL, PostgreSQL yoki NoSQL (MongoDB) kabi ma'lumotlar bazalari.

Bu kerakli ishlar tugagandan so'ng saytni faollashtirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, Facebook, Telegram) reklama kampaniyalari orqali, video yoki suratlarni targ'ib qilish yaxshi natijalar beradi. Turistlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish uchun eng mashhur platformalarda mavjud bo'lish zarur.

### FOYDALANILGAN MANBALAR

1. <http://www.president.uz/uz/lists/view/5552>.
2. Surxondaryo viloyatining Turizmni rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar (2022). Surxondaryo viloyati hokimligi matbuot xizmati.
3. “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi asosiy yo‘nalishlar” (2018). Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. **Qodirov, M.** “HTML va CSS bilan veb-sayt yaratish”.
5. **Sodiqov, J.** “Veb-dizayn: Asosiy tushunchalar va metodlar”.
6. <https://dasturlash.uz/main> – Dasturlash tillari va veb-sayt yaratish bo'yicha video darslar va maqolalar platformasi.